

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.08.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

YUNUSOVA ZAMIRA GAFAROVNA

**YUQORI SAMARALI O‘RILGAN YENGSIMON FILTRLARNING
RESURSTEJAMKOR TEXNOLOGIYASINI YARATISH**

05.06.02 – «To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish»

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Yunusova Zamira Gafarovna

Yuqori samarali o‘rilgan yengisimon filtrlarning resurstejamkor
texnologiyasini yaratish 3

Юнусова Замира Гафаровна

Разработка ресурсосберегающей технологии высокоэффективных
вязанных рукавных фильтров..... 21

Yunusova Zamira Gafarovna

Development of resource-saving technology for highly efficient knitted
bag filters..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.08.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

YUNUSOVA ZAMIRA GAFAROVNA

**YUQORI SAMARALI O‘RILGAN YENGSIMON FILTRLARNING
RESURSTEJAMKOR TEXNOLOGIYASINI YARATISH**

05.06.02 –«To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish»

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2017.3.PhD/T323 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-(<https://www.ttyesi.uz>) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raximov Farxad Xushbakovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nabiyeva Iroda Abdusamatovna
texnika fanlari doktori, professor

Petrosova Larisa Ivanovna
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan to'qimachilik sanoati instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.12.2019.T.08.01 – raqamli Ilmiy kengashning 2024yil «25» noyabr soat 14⁰⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkentsh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxonko'chasi, 5-uy. Tel.:(+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: (pochta@ttyesi.uz) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 207-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxonko'chasi, 5-uy. Tel.:(+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «11» noyabr kuni tarqatildi.
(2024 yil «11» noyabrdagi 207 - raqamli reestr bayonnomasi).



X.H.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi, Ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor



A.Z.Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi, Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh.Xakimov

Ilmiy darajalar beruvchi, Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to‘qimachilik sanoati barcha yo‘nalishlarga ta‘sir ko‘rsatuvchi kam sonli sohalardan biri bo‘lib, jahon YaIMning tahminan 2% tashkil qiladi. Eng yirik to‘qimachilik bozorlari: Italiya, Niderlandiya, Ispaniya va Buyuk Britaniya davlatlarida to‘qimachilik mahsulotlarining import hajmi 72%ga teng bo‘lib, bu qiymat yiliga 5,8%ga o‘shib bormoqda va trikotaj mahsulotlari mintaqadagi eng yirik mahsulot segmenti bo‘lib qolmoqda. Shu jihatdan trikotaj to‘quv mashinalarining texnologik imkoniyatlarini to‘liq o‘rganish, trikotaj ishlab chiqarish korxonalariga yangi texnologiyalarni joriy etish, tabiiy xomashyolardan samarali foydalanish, to‘qimachilik materiallaridan texnik maqsadlarda, jumladan filtrlar sifatida foydalanish, bu borada yangi texnologiyalarni yaratish va ishlab chiqarish vositalarini takomillashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jahonda trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda tabiiy xom ashyolardan oqilona foydalanish, paxta va ipak iplaridan foydalanish chegarasini kengaytirish, trikotaj to‘qimachilarining yangi assortimentlarini ishlab chiqishda yangi texnika va texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu yo‘nalishda trikotaj matosidan yengsimon filtrlarning resurstejamkor texnologiyasini yaratish bo‘yicha ilmiy izlanishlar ustuvor hisoblanmoqda. Bu borada to‘qimachilik materiallaridan texnik maqsadlarda, jumladan filtrlar sifatida foydalanishning ilmiy asoslarini rivojlantirish, paxta-ipakli naqshli trikotaj to‘qimachilarini olishda trikotaj mashinalarini tortish mexanizmini takomillashtirish, xom ashyo sarfini kamaytirishni texnologik yechimlarini tavsiya etish va nazariy jihatdan asoslash, xomashyo sarfi kam, yuqori sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan trikotaj to‘qimachilarining yangi assortimentini olish texnologiyasini ishlab chiqishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikada sifatli to‘qimachilik va tikuv-trikotaj buyumlari ishlab chiqarilishini tashkil etish, import o‘rnini bosadigan mahsulotlarni mahalliyashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash orqali 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni oshirish hamda to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 barabarga ko‘paytirish eng muhim vazifalardan biri deb belgilab qo‘yilgan. Ushbu vazifalarni hal qilishda, jumladan trikotaj matosidan yengsimon filtrlarning resurstejamkor texnologiyasini takomillashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrda PF-5285-son «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2017-yil 7-fevralda PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2022-yil 7-iyulda PF-165-son «2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2023-yil 12-oktyabrda PF-169-son «Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmonlari va boshqa mazkur

faoliyatga tegishli normativ-me'yoriy hujjatlar ijrosini ta'minlashda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyasining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Jahonning qator mamlakatlarida texnik to'qimachilik materiallari, jumladan, filtrlarni yaratish bo'yicha yetarlitajriba to'plagan. Ulardan Beko, Klauzen, Veksler, Gudem Lam K., Chan F., Fang U., Lyu B., Lau L., Bao L., Musadig M., Kidzima T., Komochi K., Saymon X., Bemmer D., Shazele S., Yomas D., Ренъе R., Kuayn U., Dekermensyan M., Martin R., M. Fam, K. Mak Kenna, Garri D., Feliks, Rendi L., M.Duncan, M.Salima, R.Xan, M.Sulemantaxib, G.Krammerb, M.P.Danilov, N.S.IIjetinin, A.A.Rakovets, V.A.Shapovalov, L.V.Kruglov, N.N.Vlasova, A.N.Paymetov, V.Lavnikova, P.V.Mishta, A.B.Golovanchikov, S.M.Moskvichev, N.P.Milyutkina, S.P.Mishta, O.V.Sareva, M.A.Kogan va boshqalar bu borada ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Respublikamiz olimlaridan texnik maqsadlarda ishlatiladigan o'rilgan trikotaj mato va mahsulotlarni yaratish va ishlab chiqarish texnologiyasi bilan bog'liq ish olib borgan M.M.Mukimov, Sh.R.Ikramov, N.R.Xanxadjayeva, F.X.Raximov va boshqalarning ham ilmiy izlanishlari o'rganilgan. Tahlillarga ko'ra texnik trikotaj mato va mahsulotlar, jumladan, to'ldirgichli filtrlovchi materiallar assortimentni kengaytirish va ularni amaliyotga qo'llash bo'yicha yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining M/Y36-KHP-16/2015 «Yuqori samarali to'qimachilik filtrlari yaratish» (2015-2017) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi trikotaj matosidan yengsimon filtrlarning resurstejamkor texnologiyasini yaratish va ulardan ishlab chiqarish tarmoqlarining boshqa sohalarida foydalanishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

filtrlovchi materiallar zamonaviy texnika-texnologiyasi holati tahlili, ulardan foydalanishning ko'lami va ularga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish;

trikotaj matosidan yengsimon filtrlarning resurstejamkor texnologiyasi konsepsiyasini yaratish;

filtrlovchi materiallarga qo'yilgan foydalanish talablariga muvofiq ishlab chiqarish dastgohi, to'qish va xomashyo turi hamda texnologik ko'rsatkichlarini asoslash;

to'ldirgichli filtrlovchi yenglarni olishning resurstejamkor texnologiyasini yaratish;

trikotaj matosidan filtrlovchi yenglarni olish bo'yicha normativ-texnik hujjatlarini ishlab chiqish, to'qish va tajriba-ishlab chiqarish hajmini olish;

yangi yengsimon filtrlarni qo'llashning amaliy va iqtisodiy jihatlarini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida aylana ignadonli mashinalarda paxta kalava iplaridan to'qilgan yeng va uni shakllantirilishi olingan.

Tadqiqotning predmeti aylana ignadonli mashinalarda noan'anaviy usulda olingan yengsimon matolar, ularning muqobil ko'rsatkichlari va ularga qo'yiladigan talablar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida yengsimon trikotajning texnologik ko'rsatkichlarini, fizik-mexanik va boshqa ekspluatatsion xususiyatlarini aniqlashda ananaviy usullaridan hamda deformatsion jihatlarini qonuniyatini o'rganishda nazariy mexanika, analitik geometriya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

to'qima va noto'qima matolardan tayyorlangan yengsimon filtrlarning bichish va tikish jarayonlari ancha vaqtni olishi, ko'p ishchi kuchi sarflanishi, chetlaridan sitilishi kabi xavflarning yuqoriligi, tarkibiga to'ldirgich kiritish imkoniyati murakkabligi, turli tashqi takroriy ta'sirlar ostida sifatning pasayishi kabi holatlarining oldini olish maqsadida trikotaj matodan to'ldirgichli yengsimon filtrlarning resurstejamkor texnologiyasi yaratilgan;

lastik 2+1 asosidagi to'liqmas lastik, glad va to'liqmas glad qatoridan tashkil topgan, tarkibiga qo'shimcha ip yo'naltirgich orqali hajmli to'ldirgich yuborish orqali to'ldirgichli choksiz yengsimon filtr yaratilgan;

aylana ikki ignadonli mashinalarda qo'shimcha takomillashtirish asosida to'ldirgichning bog'lovchi qator hosil bo'lishidan oldin har bir yacheykaga, ignadonlar oralig'i o'lchamining oshirilishi sharoitida kamida ikkita ketma-ket joylashgan sistema qo'shimcha ip yo'naltirgichlaridan berilishi nazariy asoslangan hamda yangi assortiment turlarini ko'paytirish maqsadida birinchi marta yengsimon filtrlarni ishlab chiqarish texnologik reglamenti yaratilgan;

filtrlash jarayonida to'ldirgichli o'rilgan yengsimon filtrlarning tuzilishi vintsimon bo'lishligini, deformatsiya kuchlarining teng taqsimlanishini hamda halqa qatorining egrilik burchagi o'zgarishini inobatga olgan holda trikotaj yengning deformatsiyasi modeli va yengsimon filtrlar eni o'zgarishining nazariy qonuniyatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yengsimon filtrlarning yangi resurstejamkor texnologiyasi yaratilgan; to'ldirgichli yengsimon filtrlarni ishlab chiqarish texnologik reglamenti yaratilgan;

yangi texnologiya va texnologik reglament ishlab chiqarishga joriy etilgan va filtrlovchi matolarning tajriba-sinov partiyasi olingan;

to'ldirgichli yengsimon filtr matolar kimyo va oziq-ovqat sanoatida qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi birinchi navbatda nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining mosligi, aprobatsiya va qo'llash natijalarining ijobiyligi, shuningdek, natijalarni qiyosiy baholash mezonlariga ko'ra ularning adekvatligiga, o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va qiyosiy tahlildagi ustunligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati filtratsiya maqsadlarida ishlatiladigan yangi to'ldirgichli yengsimon filtr matolarni olish texnologiyasini yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati trikotaj matodan to'ldirgichli yengsimon filtrlarning yangi konstruksiyalarni shakllantirish kontseptsiyasi va resurstejamkor texnologiyasining yaratilishi, ularning assortimentini va qo'llash sohasini kengaytirish, ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash imkoniyatining yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi yengsimon filtrlar texnologiyasini yaratishga oid ilmiy tadqiqotlarga asosan:

to'ldirgichli filtrlovchi yeng va uning olinish usuliga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi «Intellektual mulk markazi»ning ixtiroga patenti olingan (№IAP 06435, 16.01.2017dan 31.03.2021. Byul. 3). Natijada yuza zichligining 50%dan ortig'i to'ldirgich xissasiga to'g'ri keluvchi yengsimon filtr matolar olish texnologiyasi yaratilgan.

Dissertatsiya natijalari «Navoyiazot» AJ laboratoriya sharoitida suyuqlik namunalari filtratsiyasida tajriba sinovdan o'tkazilgan, «Далварзинтаъмирлаш»MChJ, «Sayohat agro mahsulot»MChJ, «Наманган шарбати» QK MChJ korxonalarida joriy etilgan. (2024-yil 16-fevraldagi «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasining 04/25-412-son ma'umotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan texnologik yechimlarning joriy etilishi xom-ashyodan foydalanmsh 5-7 foizga kamayishiga, energiya manbalaridan tejashga, shuningdek mehnat sharoitlari va ekologik xavfsizlikni yanada yaxshilashga imkoniyat yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 8 ta milliy ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 2 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, 2 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan hamda O'zbekiston Respublikasining 1 ta ixtiro patenti olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya matnining hajmi 96 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, shuningdek, tadqiqot obyekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan hamda amaliyotga joriy qilish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Zamonaviy filtr va filtr materiallaradabiyotlartahlili**» deb nomlangan birinchi bobida filtrlar konstruksiyasi, filtr qurilmalar filtrlovchi elementlari, ularning tasnifi va filtratsiya usullari, yengsimon filtrlarni shakllantirish texnika-texnologiyasi, xomashyo spetsifik xususiyatlari, tuzilishi va tarkibini e'tiborga olgan holda to'ldirgichli yengsimon filtrlarni olish usuli hamda ularga qo'yiladigan talablarga ko'ra ilmiy-tadqiqot ishlari, adabiyotlar tahlil etilgan.

Noan'anaviy choksiz, to'ldirgichli filtrlovchi yenglarni ishlab chiqarish yangi va istiqbolli yo'nalishi trikotaj usuli ekanligi asoslangan. Filtrlar, jumladan yengsimon filtrlarning ekspluatatsion xususiyatlari ko'p jihatdan ularning konstruksiyasi, mato tuzilishi va xom ashyo turi bilan bog'liqligi aniqlangan. Mavjud yengsimon filtrlarni ishlab chiqarishning afzallik va kamchiliklari tadqiqiga ko'rayengsimon filtrlarning resurstejamkor texnologiyasini yaratish va ulardan sanoat tarmoqlarining boshqa sohalarida foydalanish lozimligi asoslangan.

Dissertatsiyaning «**Yengsimon filtrlovchi matolar resurstejamkor texnologiyasini yaratishning nazariy asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobi yengsimon filtrlarning resurstejamkor texnologiyasi kontseptsiyasini yaratish hamda trikotaj qo'zg'aluvchanligi qonuniyati, deformatsiyasi va uning yeng eni o'lchamlariga ta'siri, to'qilgan yengsimon filtrlar shakllantirilishi bilan bog'liq nazariy tadqiqotlarga bag'ishlangan.

Yengsimon filtrlarning resurstejamkor texnologiyasi xomashyodan foydalanish (qayta ishlash), yengsimon matoni qo'llash, tayyor mahsulot ekspluatatsiyasi kabi xomashyo sarfi bilan bog'liq asosiy uchta bosqichni jamlashi lozimligi aniqlangan. Barcha uchta bosqich xom ashyodan ratsional foydalanishni ta'minlaydi.

Trikotaj ishlab chiqaruvchi dastgohlar turli tumandir. Ulardan eng salmoqlisi aylana ignadonli mashinalardir. Ularni shartli ravishda kichik (2,5 dan 5 dyuymgacha (1 dyuym – 25,4 mm)) va katta (350 dan 750 mm) diametrli bir va ikki fonturali mashinalarga ajratish mumkin. Bunda mashina klassi quyidagicha aniqlanadi:

$$K=E/t \quad (1)$$

bu yerda, t – igna qadami, mm.


Odatda aylana ignadonli mashinalarda olingan trikotaj matolar yuza zichligi **35** dan **660g/m²** oralig'ida bo'ladi. Tabiiyki, bu foydalanilayotgan xom ashyo turi va chiziqli zichligiga, to'qima turi va mashina klassiga bog'liq. Masalan, xom ashyo sarfi yuqori: taralgan yoki taralmagan poliester yoki laykra ipi aralashgan 100% paxta futer trikotaj matolar yuza zichligi **210** dan **330g/m²**; xalatlar, ro'zg'or va sport

kostyumlari uchun 100% paxta, aralash va sintetik tolali, tukli plyush trikotaj yuza zichligi **200** dan **280 g/m²** oralig'ida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi trikotaj korxonalari zamonaviy dastgohlarining aksariyati mahalliy paxta tolasidan olingan xomashyoni qayta ishlashga yo'naltirilgan. Katta diametrli aylana bir va ikki ignadonli mashinalar (Mayer, Orizio, Pasotti, Santoni, Albi, Camber, Jumberca, Marchisio, Monarch, Pilotelli, Terrot, Pailung, Fukuxara va h.k.) sidirg'a, naqshli va aralash o'rilishdagi yoni kesilgan yassi yoki choksiz yengsimon trikotaj matolar ishlab chiqaradi. Mazkur mashinalarning barchasi yuqori klassli asosan mahalliy xomashyoni qayta ishlashga yo'naltirilgan bo'lib, kiyim-kechak mahsulotlari uchun trikotaj mato ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Bunda, har xil tur yoki rangli ishlatiladigan ip va yigirilgan iplarning jamlanma chiziqli zichligi – $\sum T$ va mashina klassi – K orasidagi mutanosiblik (prof. A.S.Dalidovich) qonuniyatiga asoslanadi:

$$1000/\sum T \geq K^2/10 \quad (2)$$

Bir yoki bir necha tizim iplaridan qo'zg'aluvchan tuzilishga ega yengsimon trikotajni (1-rasm) shakllantirish barcha aylana trikotaj mashinalarga xos xususiyat hisoblanadi.



1-rasm. Bir ipdan shakllantirilgan qo'zg'aluvchan tarkibli yengsimon trikotaj:
 yengsimon trikotaj, unda halqa qatorlar va to'ldirgich vintsimon joylashuvi (a);
 halqalar va ularning qo'zg'aluvchanligi (b); P– tashqi kuch;
 A – halqa qadami, mm; B – halqa balandligi, mm

Aylana ignadonli mashinalarda choksiz yeng 1-rasmdagidek halqa qatorlari va ularning ichida joylashgan to'ldirgichlarning vintsimon joylashuvida shakllanishidan tashkil topgan. Bunda, aniq rusumdagi dastgohda shakllantirilgan yeng eni – III . I.I.Shalov bo'yicha quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$III = IA / 2 \quad (3)$$

bu yerda, I – ignadon ignalari soni; A –halqa qadami yoki halqa ustunchalari orasidagi masofa, mm.

I.I. Marisova bo'yicha esa aylana ignadonli mashinalardan olingan yenglarda ko'ndalangiga o'rilgan o'rilishlar mashina sistemalari soniga teng halqa qatorlarining vintsimon rapportini hosil qiladi. Bunda, vintsimon trikotajdagi kabi α burchak qiyaligi ostida joylashgan ko'ndalang aylana yo'l-yo'llik (polosa) hosil bo'ladi:

$$\operatorname{tg} \alpha = nB / HA, \quad (4)$$

bu yerda, n – halqa hosil qilish sistemalari soni; B – halqa qator balandligi, mm.

Trikotaj cho'zilishi jarayonida A va B halqalar ko'rsatkichlarining o'zgarishi chiziqli qonuniyatga amal qilishi va qo'zg'aluvchanlik uchburchagi chegarasida bo'lishi aniqlangan. A_o va B_o qiymatlari muvozanat holati, A_p va B_p ikki o'q chiziq bo'yicha yo'naltirilgan teng kuchlar ta'siridagideformatsion holati: bunda, $A \rightarrow A_{max}$, $B \rightarrow B_{min}$ va aksincha, $B \rightarrow B_{max}$, $A \rightarrow A_{min}$. halqa ko'rsatkichlarining mazkur o'zgarishlari yeng eni III ga ta'sir ko'rsatadi.

Natijada yeng enining minimal – III_{min} , muvozanat – III_o , maksimal – III_{max} , chegaraviy – III_p qiymatlari va ularning o'zgarish qonuniyatlari aniqlandi.

To'ldirgichli to'qilgan yengsimon filtrlarning resurstejamkor texnologiyasini yaratish imkoniyatini bergan qayta ishlash, qo'llash va tayyor mahsulotdan foydalanish kabi asosiy uchta bosqichni o'zida jamlagan xomashyo sarfi kontseptsiyasi yaratildi. Tadqiqotlar asosida har qanday to'ldirgichli yengsimon trikotajdan foydalanish bir qator omillar, jumladan, tuzilishi, xomashyo turi, ishlab chiqarish texnologiyasi va konstruktiv tuzilishi kabi yakuniy tasnifiga ta'sir ko'rsatuvchi jihatlar bilan bog'liqligi aniqlandi.

To'ldirgichli to'qilgan yengsimon filtrlar resurstejamkor texnologiyasini yaratishning quyidagi nazariy asoslari ishlab chiqilgan, jumladan:

choksiz konstruktsiyasi va tarkibining to'ldirilganligi;

u yoki bu xomashyodan foydalanish imkoniyati;

ishqalanish va deformatsiyaga chidamliligi;

yuza zichligi, eni va boshqa texnologik ko'rsatkichlarini o'zgartirish imkoniyati.

Masalan, KJK rusumli 10 klassdagi aylana ikki ignadonli mashinalarda olingan to'ldirgichli trikotaj matolarning to'ldirilish va texnologik ko'rsatkichlari (1-jadval) keltirilgan.

Shu munosabat bilan texnologik dastgoh sifatida xilma-xilligi turlicha bo'lgan katta diametrli aylana ikki ignadonli mashinalardan, texnologik imkoniyatlarining kengligini hisobga olgan holda KJK rusumidagi 10-klassli mashinalar tanlangan. Hozirgi kunda nisbatan eskirgan KJK rusumidagi trikotaj mashinalarining asosiy qismi respublikaning xususiy tadbirkorlari tomonidan ishlatilmoqda.

Adabiyotlar sharhi tahliliga ko'ra (1-jadval) barcha olingan filtrlovchi yengsimon to'ldirgichli trikotaj matolar yuza zichligi **419 – 730 g/m²** atrofidadir. Barcha filtrlovchi yenglarni olishda to'ldirgich sifatida hajmli iplardan foydalanilganligi tufayli KJK mashinalarida ikki ignadon oralig'i o'lchami o'zgartirilgan, qo'shimcha ip beruvchi moslama yordamida to'ldirgichning mato tarkibiga, ya'ni qatlamlar orasiga berilishi ta'minlangan.

Filtrlovchi matolar turi, yuza zichligi va konstruksiyasi

Mato turi	Nomi	Yuza zichligi, g/kv.m	Konstruksiya
To‘qima	Filtrbelting	550 – 1130	Yassi (yengsimon)
	Filtrdiagonal	575	
	filtr paxta poliefir «ГФХЛ»	900	
	xom filtrovanboy	456 – 430	
	filtr poliefir «ТЛФ-5»	720	
	filtr poliamid	400 – 460	
	filtromitkal (o‘rtacha)	490	
	yong‘inbardosh, namlikbardosh parusina	400 – 550	
	boshqa to‘qimalar	250 – 2500	
Noto‘qima	filtrlovchi «ПФС»	380 – 390	Yassi
	termomuqobillashtirilgan «ПФС»	500	
	sukno shinelnoye	760	
	sukno filtrovalnoye	340	
	bayka toza jun	445	
	boshqa noto‘qima matolar	250 – 2500	
Trikotaj	futer, plyush, arqoqli va aralash to‘ldirgichli o‘rilishlar asosida	330 – 750	Yengsimon, Yassi
	boshqa trikotaj matolar	250 – 2500	


Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, texnik trikotaj, shu jumladan to‘ldirgichli o‘rilgan filtr yenglar (2-rasm) nisbatan past klassli trikotaj mashinalarida ishlab chiqarilishi aniqlangan.



2-rasm. Yengsimon trikotaj ko‘rinishi va tarkibiy tuzilishi:

1 – asos halqalari; 2 – to‘ldirgich.

Siqilgan havo bilan yenglarni impulsli regeneratsiya qilishning muhim jihati, ya'ni trikotaj yeng vintsimon halqa qatorlarining tekislikdagi deformatsiyasi modeli ishlab chiqildi (3-rasm).



3-rasm. Filtrlash jarayonida yeng vintsimon halqa qatorlarining tekislikdagi deformatsiyasi modeli:

- 1 – dastlabki muvozanat holati;
- 2 –jarayondagi deformatsion holati

Nazariy qarshilarga ko‘ra, to‘ldirgichli yengsimon filtrlarning tuzilishi vintsimon to‘ldirg‘ich mavjudligi tufayli to‘qima matoga o‘xshashligi aniqlandi. To‘ldirgichning hajmliligi va g‘ovakligi filtrlash xususiyatlarini yaxshilaydi, yakuniy mahsulotning gidravlik qarshiligini pasaytiradi. Bundan tashqari, choksizlik yengning xizmat muddatini uzaytiradi, to‘ldirg‘ichda filtrat zarrachalari mavjudligi filtr regeneratsiyasidan keyin «qoldiq cho‘kindi» («осадочный пирог») saqlanishi, «o‘ta tozalanishi» («переочистка»)ga to‘sqinlik qilishiga imkoniyat yaratadi va asos qo‘zg‘aluvchanligi tufayli tashqi kuch barcha tarkibiy elementlar bo‘ylab tez taqsimlanadi hamda yeng samaradorligi, shakli tiklanadi.

Barcha deformatsion holatlarda, jumladan, filtratsiya jarayonida ham to‘ldirg‘ichli choksiz yeng enining cho‘zilish deformatsiyasi ΔIII , shuningdek, ikki en kengligida $2III_p$ qiymatlarini va yengning perimetri p o‘rtasidagi absolyut qiymat farqini quyidagicha baholash mumkin::

$$\Delta III = p - 2III_p, \text{ мм.} \quad (5)$$

Nisbiy deformatsiya qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$\varepsilon = \Delta III / 2III_p. \quad (6)$$

Choksiz yengning perimetri yoki eni quyidagi ikki o‘lchamga bog‘liq:

$$p = 2(III + h). \quad (7)$$

Deformatsiya jarayonida halqa qatorining egrilik burchagi α kamayadi (2-rasm) va miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{tg } \alpha_1 = \frac{nB}{p/2}, \quad (8)$$

bu yerda, $p/2 = M_1N_1$ ko‘ndalang kesim perimetrining yarmi.

Yeng vintsimon deformatsiyasini, shu jumladan, to‘ldirgichli choksiz trikotaj yeng deformatsiyasini ham nisbiy siljish (siljish burchagi) qiymati bilan baholash mumkin:

$$|\alpha| = \alpha_1 - \alpha. \quad (9)$$

Aslida, siljish burchagi α_1 choksiz yengning ko‘ndalang yo‘nalishi siqilishi deformatsiyasida juda kichik qiymatda bo‘ladi.

Halqa qatorlarining vintsimon chiziq bo'ylab joylashishi yengning muvozanatli deformatsiyasiga va deformatsiya kuchlarining teng taqsimlanishi tufayli o'tish qismlarining «chekka effekti» («краевого эффекта») (zo'riqish kontsentratsiyasi) kamayishiga yordam beradi.

Deformatsiya modeli, shartlari, xususiyatlari va tuzilish qo'zg'aluvchanligining tahliliga ko'ra, to'ldirilgan choksiz yengning ishlashida uning barcha tarkibiy elementlari turli kuchlar ta'siriga uchraydi.

Masalan, choksiz yeng konstruksiyasi eniga yo'naltirilgan ta'sir birinchi navbatda to'g'ri yo'naltirilgan tarkibiy elementlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi va keyingi navbatda trikotajning boshqa tarkibiy elementlari bo'ylab teng taqsimlanadi. Aynan to'g'ri yo'naltirilgan to'ldirgichli aralash to'qishda tarkibiy elementlarning o'zaro ta'sir nuqtalarining ko'payishi tufayli umumiy qarshilik kuchi ortadi. Bu to'qish tarkibining qo'zg'aluvchanligini kamaytiradi va bu choksiz trikotaj yenglarda yaqqol namoyon bo'ladi, bu jihat to'qilgan to'ldirgichli yengsimon filtrlar enining o'zgarishi bilan bog'liq nazariy tadqiqotlarda ham isbotlandi.


Shunday qilib, ma'lum bir turdagi xomashyodan tegishli rusumdagi ikki ignadonli aylana trikotaj mashinalarda ma'lum bir turdagi xom ashyodan olingan choksiz to'ldirilgan yenglarda halqalarning yo'nalishi bir xil bo'ladi. Asos halqalarining joylashuvini o'ziga xos naqsh deb hisoblash mumkin emas. Xususan, halqa qatorlar qiyaligi va ular orasida to'ldirgichning joylashuvi, kabi qator omillarni to'ldirgichli mato va yenglarning yaratilishida e'tiborga olish kerak.

To'qima va noto'qima matolardan tayyorlangan yengsimon filtrlarning kamchiliklari, ularni bichish va tikish jarayonlari ancha vaqtni olishi, ko'p ishchi kuchi sarflanishi, chetlaridan silitilishi kabi xavflarning yuqoriligi, tarkibiga to'ldirgich kiritish imkoniyati murakkabligi (tolali, dispers va h.k.) turli tashqi takroriy ta'sirlar ostida sifatning pasayishi kabi holatlarining mavjudligi qayd etilgan.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish, yangi assortiment turlarini ko'paytirish maqsadida to'qilgan yengsimon filtrlarning resurstejamkor texnologiyasi yaratildi hamda ularni ishlab chiqarish texnologik reglamenti ishlab chiqildi. Texnologiyaning mohiyati to'liqmas lastik asosidagi to'ldirgichli choksiz yengsimon filtr yaratishdan iborat, bunda lastik²⁺¹ asosidagi to'liqmas lastik, glad va to'liqmas glad qatoridan tashkil topgan o'rilish tarkibiga qo'shimcha ip yo'naltirgich orqali hajmli to'ldirgich yuboriladi.

Aralash to'ldirgichli trikotaj tuzilishi 4-rasmda, bunda, I – III – mashina halqa hosil qilish sistemalari; P – rippshayba va II – silindr ignadoni I sistemaning II va P ignalarida bog'lovchi qator lastik 2+1 (J_{2+1}) shakllantiriladi; asosiy ip yo'naltirgich – H_1 ; II sistemaning P rippshayba ignalarida glad (K_2) qatorini hosil qiladi; qo'shimcha ip yo'naltirgich H_2 (H_y) to'ldirgichni yo'naltiradi, III sistemaning II silindr ignalari to'liqmas glad (*пен.э*) qatorini hosil qiladi, lastik 2+1 qatorini hosil qilishda ishlamagan ignalarda to'liqmas glad qatori olinadi.


Natijada, xuddi to'liqmas lastik asosidagi aralash to'ldirgichli trikotajdagi kabi halqalarning shaxmat tarzida joylashishi bilan shakllantirilgan faktura, ya'ni arqoq – to'ldirgichning tarkibiy tuzilishda mustahkamligini ta'minlovchi kam cho'ziladigan to'qima sifat o'rilishni olishga erishiladi.



4-rasm. To‘liqmas lastik asosidagi aralash to‘ldirgichli trikotajni tuzilishi va grafik yozuvi

Aylana ikki ignadonli mashinalarda qo‘shimcha takomillashtirish asosida to‘ldirgichning bog‘lovchi qator hosil bo‘lishidan oldin har bir yacheykaga, ignadonlar oralig‘i o‘lchamining oshirilishi sharoitida kamida ikkita ketma-ket joylashgan sistema qo‘shimcha ipyo‘naltirgichlaridan berilishi nazariy asoslandi (5-rasm).

To‘qimaning barcha turlarida asos hamda to‘ldirgich, ularning issiqlikka chidamliligi, kislotaga va ishqoriy muhitga kimyoviy barqarorligi, oksidlovchi moddalar, erituvchilar va boshqa shu kabi omillarni e‘tiborga olgan holda turli xomashyolardan foydalanish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, yakka yoki yigirilgan iplarning chiziqli zichligi va trikotaj klassining o‘zaro bog‘liqligi mavjud qonuniyatlarga bo‘ysunadi ($1000/\Sigma T \geq K^2/10$).



5-rasm. Yengsimon trikotajni olishda to'ldirgichning yo'naltirilishi:

P – rippshayba; II – silindr; Hy – qo'shimcha ipyo'naltirgich; Y – to'ldirgich;
C va C¹–silindr va rippshayba eski halqasi

To'ldirgichli yengsimon filtrlar halqa hosil qilish jarayonlari, shartli variantlarni loyihalash va texnologik parametrlarini aniqlashning o'ziga xosliklari tadqiq etildi. Polimer va sopolimerlar, dispers, granula, tolali sorbtsion (xemosorbtsion, antimikrob va h.k.) moddalardan to'ldirgichli yengsimon filtrlar ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatlari asoslandi.

Dissertatsiyaning «**Yuqori samarali to'ldirgichli filtrlar yaratishning amaliy va iqtisodiy jihatlari**» deb nomlangan uchinchi bobida Samarqand shahridagi «G'ani Raximov Ishonch» xususiy firmasi ishlab chiqarish sharoitida yengsimon to'ldirgichli filtrlarni olish usuli (UZ №IAP 06436) sinovdan o'tkazilganligi va yengsimon filtrlar tajriba-eksperimental namunalarini olish bo'yicha ishlar bajarilgani yoritilgan.

Aylana ignadonli 10 klass KJK rusumidagi trikotaj mashina filtrlovchi to'ldirgichli yenglarni olish texnologiyasi amalga oshirildi.

To'ldirgichli yengsimon matolar taxtlash va texnologik ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

To'ldirgichli yengsimon matolar taxtlash va texnologik ko'rsatkichlari

Variant	Xom ashyo chiziqli zichligi (nomeri) va % nisbati, asos to'ldirgich	100 mm dagi halqalar		A, mm	B, mm	Halqa ip uzunligi, 1 mm	Q, g/m ²
		P _c	P _e				
1	Paxta kalava ipi 17,5teks (Ne34) x 2 (91%)	54	88-44	0,92	0,6-1,1	4,5	435
	Paxta kalava ipi 21teks (Ne28) x 2 (9%)						
2	IIAH 21 teks (Ne28) x 2 (92%)	48	76-38	1	0,7-1,3	5,1	534
	Paxta kalava ipi 21 teks (Ne28) x 2 (8%)						

Izoh: bitta to'ldirgich holatida (ikki va uchta bo'lishi mumkin).

To'ldirgichli yengsimon matolarning fizik-mexanik va boshqa ekspluatatsion xususiyatlari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

To'ldirgichli yengsimon matolarning fizik-mexanik va boshqa ekspluatatsion xususiyatlari

Variant	Qalinlik, mm	Uzilishdagi mustahkamlik*,H		Nisbiy cho'ziluvchanlik,%	Ishqalanishga chidamlilik, sikl	Havo o'tkazuvchanlik, sm ³ /sm ² sek
		Бўйига	энига			
1	1,35	345	292	9,4	12500	41
2	1,65	471	201	7.9	28000	101

Izoh:*6 H dan yuqori qiymatdagi kuch; ** P=1 atm.

100% paxta xomashyosidan tayyorlangan to'ldirgichli trikotaj matolarning filtrlash xususiyatlari «Navoyiazot» AJ laboratoriyasida (14.06.2017-yildagi 15411-sonli xizmat xatiga muvofiq) tiomochevina (TM) ishlab chiqarishda texnologik oqimlar suyuqlik namunalarini filtrlashda to'qima mato bilan taqqoslandi:

1. p. P301pozitsiyadagi ammoniy rodanid eritmasini parchalanganidan so'ng aralashmalardan tozalash uchun ammoniy polisulfiddan foydalanildi.

2. Qo'shaloq tuz (DS) suspenziyalari p.203 dagi yuvg'ichdan keyin rodanistiy ammoniy (PA) eritmasi yordamida ikki tuz ajratildi.

To'ldirgichli trikotajning filtrlash xususiyati shu kabi sinov sharoitida tiomochevina ishlab chiqarishda ishlatiladigan xom paxta to'qima matosining(STP Uz 6.1-56-96) filtrlash ko'rsatkichlari bilan taqqoslandi.

Ammoniy rodanid eritmasini erimaydigan oltingugurtni o'z ichiga olgan birikmalardan filtrlash jarayonida hosil bo'ladigan aralashmalar miqdori, filtrlash tezligi va filtrlangan eritmaning optik zichligi aniqlandi.

p. P301dagi rodanid eritmasini filtrlashbo'yichasinovnatijalari4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Rodanid eritmasini filtrlash bo'yicha sinov natijalari

t/r	Ko'rsatkich turi	63-sonli reglamentga muvofiq me'yor	Rodanid ammoniy n. P301 eritmasi		
			Filtrlashga cha	filtrlashdan so'ng	
				sinovdagi to'ldirgichli trikotaj	xom to'qima mato CTII Y3 6.156-96
1	Poli sulfidlarning eritmadagi massa ulushi, oltingugurtga nisbatan, %	n/6 0,028	0,012	0,011	0,0069
2	Optik zichlik, y.e.	n/6 0,8	0,012	0,006	0,0045
3	Tozalash darajasi, %	-	-	50,0	62,5
4	Filtrlash tezligi (0,5 dm ³), s	-	-	20	30

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, to'ldirg'ichli trikotajni oltingugurt aralashmasidan filtrlashda xom to'qima matosidan samaradorligi past. Namunalarni tajribada sinovdan o'tkazilganida qo'shaloq tuzning samaradorligi va tarkibi aniqlandi. Qo'shaloq tuz va matochnikni TM:PA nisbati aniqlandi. Xuddi shu ko'rsatkichlar p.203 holatdagi dastlabki suspenziya holatida tahlil qilindi. Bundan

tashqari, sinov va taqqoslangan namunalar orqali suspenziyaning filtrlash tezligi aniqlandi.

Filtr namunalari dastlab suvda namlandi. 0,5 dm³ miqdorida p. 203 suspenziyasi filtr namunalari orqali 0,5÷0,6 kg/cm² vakuum ostida Buchner voronkasida filtrlanadi. Filtrlangan kristallar tuz konsentratsiyasiga (35-37%) suyultirildi va TM: PA nisbati aniqlandi. Sinov natijalari 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Namunalar sinov natijalari

t/r	Ko'rsatkich turi	Boshlang'ich suspenziya DC (TM :PA)	Filtrlashdan so'ng			
			sinovdagi to'ldirgichli trikotaj orqali		solishtirilayotgan xom to'qima orqali CIIT Y ₃ 6.1-56-96	
			qo'shaloq tuz (TM : PA)	matochnik	qo'shaloq tuz (TM : PA)	matochnik
1	(TM+PA) tuzlar miqdori suspenziyada, % G	62,87	36,5 235,09	58,4 490,6	36,0 236,1	57,2 478,5
2	Nisbat (TM : PA), % G	16,07 : 46,8	20,1 : 16,4 47,3 : 38,5	11,75 : 46,65 57,6 : 228,9	21,3 : 14,7 50,3 : 34,7	10,2 : 47,0 48,8 : 224,9
3	Filtrlash tezligi (0,5 dm ³), s	-	75	-	96	-

5-jadvaldan ko'rinib turibdiki, qo'shaloq tuz chiqishida filtr namunalari sinovdagi (xom to'qima (CIIT Y₃ 6.1-56-96) ko'rsatkichlari taxminan bir xil natijada. Ushbu tuz chiqishidagi TM: PA ko'rsatkich nisbatan xom to'qima orqali filtrlanganda biroz yaxshiroq bo'lib chiqdi. Filtrlash tezligi to'ldirgichli trikotajda xom to'qima matoga nisbatan tezroq. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida xulosa qilish mumkinki, RA eritmasini iflosliklardan filtrlash ko'rsatkichi bo'yicha to'ldirgichli trikotaj hozirda ishlab chiqarishda ishlatilayotgan xom to'qima matosinikidan past (CIIT Y₃ 6.1-56-96). Ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'ldirgichli trikotaj orqali qo'shaloq tuzni filtrlash qobiliyatini yanada aniqroq baholash uchun zamonaviy rusumdagi uskunada sinovdan o'tkazish talab etiladi. Yuqoridagi barcha dalillar va ishlab chiqarish mutaxassislarining fikrlari to'ldirgichli yengsimon filtrlarni faqat trikotaj usulda shakllantirish mumkinligini tasdiqlaydi. Trikotaj matodagi to'ldirgich ulushining ko'payishi bilan yakuniy mahsulotning texnologik ko'rsatkichlari, fizik-mexanik va boshqa ekspulatsion xususiyatlarini yaxshilash mumkin. Texnologik quvvatlarning mavjudligi, ma'lum bir ishlab chiqarish talabiga muvofiq turli xil o'ziga xos xomashyolardan foydalanish orqali import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan texnik matolar, trikotajdan to'ldirgichli filtr mato yoki yenglarni yaratish mumkin. Bundan tashqari, 100% paxta xomashyosidan tayyorlangan to'ldirgichli trikotaj matolarning filtrlash xususiyatlari oziq-ovqat sanoatida uzum va

topinambur sharbatlari, Namangan viloyatidagi «Наманган шарбати» ҚК МChJ, Toshkent viloyatidagi «Далварзинтаъмирлаш» МChJ va «Sayohatagromahsulot» МChJda ishlab chiqarish sharoitida o‘rganildi. Uzum, olma va topinambur sharbatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, cho‘kma miqdori kamayishi bilan filtrlash tezligining oshishiga erishildi. Uzum sharbati uchun eng yuqori filtrlash tezligi – $68,6 \text{ Kn/m}^2$ ($0,7 \text{ atm}$) bosim pasayishida erishiladi. Olma sharbati uchun esa $78,4 \text{ Kn/m}^2$ ($0,8 \text{ atm}$) ekanligi aniqlandi. 1 tonna xom ashyo uchun to‘ldirgichli trikotaj filtrlar turli xil variantlaridan foydalanishning nisbiy samaradorligi hisoblangan.

XULOSA

1. Ilmiy-texnik va patent-litsenziyasiga ega adabiyotlarni o‘rganish asosida turli sohalarda qo‘llaniladigan yengsimon filtrlarning resurstejamkor texnologiyasini yaratish istiqbollari ilmiy asoslandi.

2. Trikotaj filtrlarning resurstejamkor texnologiyasi nazariy asoslari va kontseptsiyasi, filtrlash jarayonida trikotaj yengning deformatsiyasi modeli ishlab chiqildi.

3. Birinchi marta yengsimon to‘ldirgichli yenglarni resurstejamkor texnologiyasi yartildi va ularni ishlab chiqarishning texnologik reglamenti ishlab chiqildi.

4. Samarqand shahrida joylashgan «G‘ani Raximov Ishonch» xususiy korxonasida to‘qilgan yengsimon filtrlar tajriba-sinov namunalarini olindi, texnologik reglament ishlab chiqildi.

5. To‘ldirgichli trikotaj matolar halqa hosil qilish jarayonlari tadqiq etildi.

6. 100% paxta xomashyosidan tayyorlangan to‘ldirgichli trikotaj matolarning filtrlash xususiyatlari «Navoyiazot» AJ laboratoriyasida suyuqlikni filtrlash jarayoni bo‘yicha sinovdan o‘tkazildi. Namangan viloyatidagi «Наманган шарбати» ҚК МChJ, Toshkent viloyatidagi «Далварзинтаъмирлаш» МChJ va «Sayohatagromahsulot» МChJda sharbatlarni filtrlash jarayoni sinovdan o‘tkazildi.

7. «Navoyiazot» AJda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra filtrlash tezligi to‘ldirgichli trikotajda qattiq to‘qima matoga nisbatan tez. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida xulosa qilish mumkinki, PA eritmasining iflosliklardan filtrlash qobiliyati bo‘yicha to‘ldirilgan trikotaj filtrlash qobiliyati hozirda ishlab chiqarishda ishlatiladigan qattiq to‘qima matodan filtrlash qobiliyatidan past (СПИТ Уз 6.1-56-96). Ushbu ko‘rsatkichni yaxshilash uchun ko‘proq qattiqroq variantlardan foydalanish kerak.

8. Uzum, olma va topinambur sharbatlarida olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, cho‘kma miqdori kamayishi bilan filtrlash tezligining oshishiga erishildi. Uzum sharbati uchun eng yuqori filtrlash tezligi bosim pasayishida – $68,6 \text{ Kn/m}^2$

(0,7 atm.) va filtrlash tezligi bosim pasayishida olma sharbati uchun – 78,4 Kn/m² (0,8 atm.) ekanligi aniqlandi.

9. Ishlab chiqilgan texnologik yechimlarning joriy etilishi xomashyo, energiya manbalaridan oqilona foydalanish, shuningdek mehnat sharoitlari va ekologik xavfsizlikni yanada yaxshilashda namoyon bo‘ladigan muhim ijtimoiy va iqtisodiy samara beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.08.01 ПОПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

ЮНУСОВА ЗАМИРА ГАФАРОВНА

**РАЗРАБОТКА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ ТЕХНОЛОГИИ
ВЫСОКОЭФФЕКТИВНЫХ ВЯЗАНЫХ РУКАВНЫХ ФИЛЬТРОВ**

**05.06.02 – «Технология текстильных материалов и первичная
обработка сырья»**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент–2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2017.3.PhD/Т323

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (www.titli.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Рахимов Фархад Хушбакович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Набиева Ирода Абдусаматовна
доктор технических наук, профессор

Петросова Лариса Ивановна
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

Наманганский институт текстильной промышленности

Защита диссертации состоится «25» ноября 2024 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Т.08.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности по адресу: 100100., г. Ташкент, ул. Шохжахон-5, административное здание Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2 этаж, 222-аудитория. Тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, факс: 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована под номером № 207). Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон-5. Тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан «11» ноября 2024 года.
(Реестр протокола рассылки № 207 от «11» ноября 2024 года).



Х.Х.Камилова

Председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор



А.З.Маматов

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

Ш.Ш.Хакимов

Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире текстильная промышленность является одной из немногих отраслей, затрагивающих все направления, на ее долю приходится около 2% мирового ВВП. Крупнейшие текстильные рынки: Италия, Нидерланды, Испания и Великобритания составляют 72% импорта текстиля, рост которого составляет 5,8% в год, а трикотаж остается крупнейшим товарным сегментом в регионе. В связи с этим необходимо всестороннее изучение технологических возможностей вязальных машин, внедрение новых технологий на предприятиях трикотажного производства, эффективное использование природного сырья, использование текстильных материалов для технических целей, в том числе в качестве фильтров, создание и развитие новых технологий в связи с этим актуальны вопросы совершенствования средств выпуска. В мире ведутся научно-исследовательские работы по рациональному использованию натурального сырья при производстве трикотажных изделий, расширению границ использования хлопчатобумажных и шелковых нитей, разработке новых ассортиментов трикотажных полотен, и совершенствование новых методов и технологий. В этом направлении приоритетными считаются научные исследования по созданию ресурсосберегающей технологии трикотажных фильтров. В связи с этим разработка научных основ использования текстильных материалов для технических целей, в том числе в качестве фильтров, совершенствование тянущего механизма вязальных машин для получения хлопчатобумажных трикотажных полотен, рекомендации и теоретическое обоснование технологических решений по снижению расхода сырья, является актуальным процессом. Для снижения расхода сырья особое внимание уделяется разработке технологии получения нового ассортимента трикотажных полотен с высокими качественными показателями.

В республике реализуются комплексные меры, направленные на организацию производства высококачественного текстиля и швейно-трикотажной продукции, локализацию импортозамещающей продукции, повышение экспортного потенциала местных производителей. В новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы одной из важнейших задач является обеспечение стабильно высоких темпов роста отраслей экономики, увеличение доходов на душу населения к 2030 году и увеличение объемов производства продукции текстильной промышленности в 2 раза. При решении этих задач важно совершенствовать и внедрять в производство ресурсосберегающую технологию рукавных фильтров из трикотажного полотна.

Указ Президента Республики Узбекистан №УП-5285 от 14 декабря 2017 года «О мерах по ускоренному развитию текстильной и швейно-трикотажной промышленности», №УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», № УП-165 от 7 июля 2022 года «Об утверждении Стратегии инновационного

развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы», № УП-169 от 12 октября 2023 года «О дополнительных мерах по ускоренному развитию промышленности и ее базовых отраслей» и других нормативно-правовых документах, связанных с этой деятельностью. Научно-исследовательская работа обслуживает определенный уровень.

Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий в Республике Узбекистан. Настоящая исследовательская работа выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий в Республике Узбекистан (II. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение»).

Степень изученности проблемы. Ряд ученых из зарубежных стран ведут исследования по вопросам совершенствования технологии и производства текстильных материалов технического назначения, фильтровальных материалов, в частности Беко, Клаузен, Векслер, Гудем Лам К., Чан Ф., Фанг У., Лю Б., Лау Л., Бао Л., Мусадыг М., Кидзима Т., Комочи К., Саймон Х., Бемер Д., Шазеле С., Йомас Д., Ренье Р., Куайн У., Декерменсян М., Мартин Р., М. Фам, К. Мак Кенна, Гарри Д., Феликс, Рэнди Л., М.Дункан, М.Салима, Р.Хан, М.Сулемантахиб, Г.Краммерб, М.П.Данилов, Н.С.Щетинин, А.А.Раковец, В.А.Шаповалов, Л.В.Круглов, Н.Н.Власова, А.Н.Пайметов, И.В.Лавникова, П.В.Мишта, А.Б.Голованчиков, С.М.Москвичев, Н.П.Милюткина, С.П.Мишта, О.В.Царева, М.А.Коган и др.

В нашей стране в этом направлении проводили научные исследования и внесли свой достойный вклад такие ученые, как: М.М.Мукимов, Ш.Р.Икрамов, Н.Р.Ханхаджаева, Ф.Х.Рахимов и другие.

Анализ исследований в данной отрасли показал, что на данный момент недостаточно исследований, посвященных разработке бесшовных рукавных фильтров на трикотажной основе. Также, остается актуальным решение задач импортозамещения и расширения ассортимента.

Связь темы диссертации с научно-исследовательскими работами высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация. Диссертационные исследования выполнены в рамках плана реализации проектов научно-исследовательских работ Ташкентского института текстильной и легкой промышленности: М/Узб-КНР-16/2015 «Разработка высокоэффективных текстильных фильтров» (2015-2017).

Целью исследования является разработка ресурсосберегающей технологии высокоэффективных вязаных рукавных фильтров и их применение в других отраслях промышленности.

Задачи исследования: анализ современного состояния техники и технологии производства фильтровальных материалов, области их использования, а также требования, предъявляемые к ним;

создание концепции, позволяющей разработать ресурсосберегающую технологию высокоэффективных рукавных фильтров;

обоснование выбора вида оборудования, переплетения, сырья, а также технологических параметров фильтровального материала с учетом его дальнейшего применения;

разработка ресурсосберегающей технологии вязания наполненных рукавных фильтров, обоснование вида пропитки;

разработка нормативно-технического документа, промышленная апробация по вязке высокоэффективного вязаного фильтра и выпуск объема производственной партии;

обоснование практической и экономической целесообразности применения новых рукавных фильтров в плодоовощной промышленности.

